

**ZAMONAVIY DASTURIY KOMPLEKSLAR YORDAMIDA “TOZA XUDUD”  
 DAVLAT UNITAR KORXONASI TRANSPORTLARIDA TASHISH XIZMATINI  
 TAKOMILLASHTIRISH.**

*Yaxshilikov Nurbek O'ktam o'g'li*  
*Jizzax politexnika instituti*  
 501M-21 ITT guruh magistranti,  
[bezodclash@gmail.com](mailto:bezodclash@gmail.com)

*Valiyev Muhammadali Komiljon o'g'li*  
*Jizzax politexnika instituti*  
 501M-21 ITT guruh magistranti,  
[valiyevalimhammad1995@gmail.com](mailto:valiyevalimhammad1995@gmail.com)

**Annotatsiya.** *Maqolada jizzax viloyati “Toza hudud” DUK misolida zamonaviy dasturiy komplekslar yordamida tashish xizmatini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Chiqindi u xoh qattiq bo‘lsin, xoh maishiy yoki qurilish chiqindisi bo‘lsin, to‘plash, tashish, ko‘mish yoki utilizatsiya qilish, imkoni bo‘lsa, qayta ishlash talab etiladi.*


Mamlaktimizdagi 13 “Toza hudud” davlat unitar korxonalarini va ularning 174 tuman, shahar filiallari, xususan Toshkent shahridagi “Maxsustrans” DUK, markaziy shaharlarda 9 klaster va 100 muqobil korxonasi tomonidan aholiga sanitar tozalash xizmatlari ko‘rsatib kelinmoqda. Mamlaktimizdagi 13 “Toza hudud” davlat unitar korxonalarini va ularning 174 tuman, shahar filiallari, xususan Toshkent shahridagi “Maxsustrans” DUK, markaziy shaharlarda 9 klaster va 100 muqobil korxonasi tomonidan aholiga sanitar tozalash xizmatlari ko‘rsatib kelinmoqda.

Bugungi kunda mazkur tashkilotlar aholiga sanitar tozalash xizmati sifatini oshirish va qamrovini kengaytirish, sanitar tozalash korxonalarini moddiy-texnik bazasini va infratuzilmasini mustahkamlashga alohida ahamiyat berayotir.

Chiqindi u xoh qattiq bo‘lsin, xoh maishiy yoki qurilish chiqindisi bo‘lsin, to‘plash, tashish, ko‘mish yoki utilizatsiya qilish, imkoni bo‘lsa, qayta ishlash talab etiladi. Shu tufayli bundan oldin joylarda “Toza hudud” davlat unitar korxonalarini faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Ushbu korxonalarini tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad avvalo, chiqindi bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish edi. Shu bilan birga xalqimiz uchun munosib yashash sharoitlarini yaratish, respublikada sanitariya va ekologik vaziyatni yaxshilash, aholi turmush darajasi va sifatini yanada oshirishga rejalashtirilgandi.

Bugun ushbu maqsadlarga nechog‘lik erishilmoqda, umuman, “Toza hudud” davlat unitar korxonalarini talab darajasida va to‘laqonli faoliyat yuritayaptimi? Tuman, shahar hokimliklarida bu tizim samarali ishlashi uchun etarli e‘tibor qaratilayaptimi? Viloyat hokimliklarida o‘tkazilgan



hokimlik soatida ushbu masala atroflicha muhokama qilinmoqda. Qayd etilganidek, shahar, tumanlarda aholi va yuridik korxonalarining maishiy va suyuq chiqindilarini olib chiqishda shartnoma tuzish hamda qarzidorliklarni kamaytirish, xizmat sifatini talab darajasiga etkazish bo'yicha bir qator ishlar olib borilmoqda.

O'tgan to'qqiz oy davomida aholi xonadonlariga 3,9 milliard so'mlik xizmat ko'rsatilgan. Biroq bugungi kunda 7,8 milliard so'm debitor va 7 million so'm kreditor qarz yuzaga kelgan.

Vaholanki, davlatimiz rahbarining tegishli qarorida 2023 yilgacha chiqindilarni tashib ketish xizmatlari bilan qamrab olish darajasini 93 foizga etkazish ko'zda tutilgan. Xo'sh, bunday sharoitda aytilgan ko'rsatkichga erishib bo'ladimi? Mumkin, faqat qo'shimcha 233 ta texnika, shundan 205 ta chiqindi chiqarish (musorovoz), 15 ta asenizator va 13 ta buldozer texnikalari talab etiladi.

Bugungi kunda shahar va tuman filiallarida jami chiqindi yig'ish poligonlari mavjud. Jumladan, Jizzax shaxrida hududga tutash joylashgan mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan poligonga chiqindilarni kiritishga ruxsat berilmayapti. Shu sabab Jizzax shaxri va tumandagi chiqindilar uzoq xuddagi poligonlarga chiqarilmoqda, bu esa qo'shimcha transport va boshqa xarajatlarning oshishiga sabab bo'lmoqda. Poligon uchun qo'shimcha er maydoni ajratish yuzasidan 2018 yilning mart oyida tuman hokimligiga murojaat qilingan bo'lsa-da, haligacha er maydoni ajratilmagan.

Ko'chaga yoki belgilanmagan joylarga chiqindilarni to'kish holatlari boshqa hududlarda ham kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, uning tizimidagi "Toza hudud" DUK mas'ullari, mutaxassislar, axborot xizmati va kadrlar bo'limlari ta'kidlanganidek, ushbu soxadagi ishlar talab darajasida emas.

- 2020 yilda yana 143 poligonda qurilish ishlarini amalga oshirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, 304 namunaviy tipdagi zamonaviy chiqindilarni to'plash shahobchalari qurilib, 2 561 konteyner bilan jihozlandi.

Hududlardagi mavjud 221 maishiy chiqindi poligonning barchasi pasportlashtirilib, umumlashtirilgan ma'lumotlar asosida davlat yagona kadastr ma'lumotlar bazasi yaratildi hamda tegishli tartibda er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasiga taqdim etildi. Bugungi kunda maishiy chiqindi poligonlari davlat kadastrlari, qo'mitada zamonaviy "ArcGIS" dasturiy ilovalari va boshqa turdagi geoaxborot tizimlaridan foydalangan holda faoliyat ko'rsatmoqda. Hududiy "Toza hudud" DUKlarida jami 6 844 nafar xodim mehnat qilayotir. 2020



yilga nisbatan ular soni 3,1 barobarga ortgan va 4 660 nafar aholi doimiy ish o‘rinlari bilan ta’minlandi. Yil yakuniga qadar yana qo‘shimcha 1 026 ta doimiy ish o‘rinlari yaratilishi rejalashtirilgan.

Yana bir muhim faktga ahamiyat beradigan bo‘lsak, 2018 yilda davlat unitar korxonalaridagi ishchi va xizmatchilarning bir oylik ish haqi fondi 6 milliard so‘mni, 2019 yilda ish haqi miqdori 1,5 barobarga ortib, 7,5 milliard so‘mni tashkil etdi.

Avvalo, bugun kompaniya faoliyati bilan sizlarni tanishtirish uchun imkoniyat berilganidan xursandman,- dedi Xitoyning “Haiqi group” kompaniyasi bosh menejeri Xan Ji Sun.- O‘ttiz yillik tajribaga ega kompaniya chiqindilarni qayta ishlaydigan uskunalar ishlab chiqaradi. Uning faoliyatini O‘zbekistonga yaxshiroq tanishtirish uchun kompaniya yangi loyihasini taqdim qilmoqda. Loyiha chiqindilarni yoqish orqali elektr energiya ishlab chiqarishga asoslangan.

Ushbu sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassis xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularni me‘yoriy-xuquqiy hujjatlar bilan ishlash tartibi bilan tanishtirish, qurilish ishlari zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash kabi masalalar amalga oshirilishi lozim.

Hozirgi kunda viloyatimiz tumanlarida shu tizim uchun o‘nta bino qurilmoqda, shundan oltitasi foydalanishga topshirildi. 2017 yildan boshlab korxonaga 40 dan ortiq chiqindi tashuvchi texnika berildi. Ayni chog‘da ularning soni 80 dan ziyoddir. Shu ishlarimiz bilan viloyat aholisini 51 foizi qamrab oldik va ularning ishonchini oqlashga to‘liq erishilmoqda.

Xulosa kilib aytganda bugungi kunda ushbu korxonalarining ishini zamonaviy dasturiy komplekslar yordamida tashish xizmatini takomillashtirish orqali yanada samarali amalga oshirish mumkin. Shuningdek, bugungi kunda ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar bilan ishlashda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha malaka oshirish, kadrlar bilan ishlash bo‘limlari faoliyatini takomillashtirish masalalari orvali ham takomillashtirish mumkin.

### ADABIYOTLAR.

7. Blatnov A.D. Passajirskiye avtomobilniye perezovki. M.:Transport, 1972.
8. Butaev Sh.A. va boshqalar. Tashish jarayonlarini modellashtirish va optimallashtirish, T.: Fan, 2009.
9. O‘zbekiston Respublikasining transportga tegishli Qonunlari.
10. Xodjaev B.A. Avtomobillarda yuk va passajirlar tashish asoslari, T.: O‘zbekiston, 2002.
11. Raxmatullaev M. Qosimov S.X. Yuk oqimini logistik kuzatuv va komplekslarini mahalliyashtirish omillari. Ilmiy-tex. jur. 23 (8) 52.
12. Raxmatullaev M. Qosimov S.X. Sovremennye innovatsii i texnologii organizatsii perezovki. Ilmiy – texnik jurnal 23 (9) 167.

